



## MUSIQA TINGLASHNING CHET TILLARINI O`RGANISHDAGI SAMARASI

**Xaldurdiyeva O`g'iljeren Abajan qizi**

*O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*ingliz tili filologiyasi 1-kurs talabasi*

*jayronxaldurdiyeva@gmail.com*

**Ilmiy rahbar: Kushiyeva Nodira Xabibjonovna**

*Pedagogika fanlari doktori (DSc)*

*nodira.kushieva@mail.ru*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqa tinglashning inson hayotidagi tutgan o`rni, ortib borayotgan ahamiyati, qator foydali jihatlari hamda musiqa tinglash orqali ko`rildigan ijobiy natijalarni qanday qilib chet tillarini o`rganishga yo`naltirish, chet tillarini o`rganuvchilar odatda til o`rganish jarayonida duch keladigan va yuzaga keladigan salbiy holatlar(stress, ruhiy tushkunlik, umidsizlik, erinchoqlik, ishtiyoqning pasayishi, ishonchsizlik va hokazo)ni bugungi davr insoni uchun maroqli bo`lgan mashg`ulotlar bilan mujassamlashtirish to`g`risida fikr yuritiladi, turli xil dalillar, metodlar va ko`rsatkichlar haqida ma`lumot beriladi, misollar keltiriladi va xulosa taqdim etiladi.

**Tayanch tushunchalar:** tinglash ko`nikmasi (*Listening*), til, nutq, raxonlik, musiqa, shaxsiy rivojlanish, muntazamlik, taqlid (*imitation*), native speaker, lug`at.

### KIRISH

Dunyoda musiqa tinglamaydigan bironta millat yo`q. Har qaysi xalq hayotida musiqa o`zining ma`lum bir o`rniga ega. Bugungi kunda davr odamlari kunining(hafta, yil, umuman, hayotining) o`rtacha qancha qismini qo`sinq tinglashga sarflashi tadqiqotchilar tomonidan o`rganib chiqilgan. Tadqiqot natijalarida bu ko`rsatkichning yildan-yilga oshib borayotganligi ko`riladi. Musiqa tinglashning inson psixologiyasi va shaxsiy rivojlanish uchun qator foydali tomonlari mavjud. Professor Avram Heshmat buning eng muhim 5 ta jihatini o`rgangan. Bunga ko`ra, quyidagilar biz tadqiq etayotgan mavzuga muvofiqligi uchun keltirib o`tamiz:

- Miya markazini faollashtirishi – inson qo`sinq eshitayotganda miyyaning markaziy qismi qo`sinq ritmiga mos ravishda faollahshadi.

- Tetiklashtirishi va yuqori kayfiyat berishi – inson musiqa tinglar ekan, o`zini tetik va bardam sezadi.

Muhim jihat shundaki, musiqa tinglash orqali ma`lum bir tilni tezroq o`rganish va mazkur tilni o`rganish jarayonini til o`rganuvchi uchun maroqli mashg`ulotga aylantirish mumkin. Muayyan tilda musiqa tinglaganda, quyidagi natijalarga erishish kutiladi:

- Nutqdagi nuqsonlarni yo`qotish, raxonlikni oshirish;



- Tez fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- Lug`at boyligini kengaytirish.

## METODOLOGIYA

Ma'lumotlarga ko`ra, inson haftasiga o`rtacha 20.1 soatni musiqa tinglashga sarflaydi. Bu kuniga deyarli 3 soat, aniqrog`i, 172 daqiqani tashkil etadi. Ya`ni, bu inson kuniga 3 daqiqalik qo`shtiqdan, taxminan, 57 tasini eshitadi, degani. Til o`rganayotgan yoshlар kunining 2-3 soatini o`z ustida ishlashga sarflashini hisobga olsak, musiqa eshitishga sarflanadigan vaqt ham til o`rganish maqsadiga yo`naltiriladigan bo`lsa, kutilgan natija tezroq namoyon bo`ladi.

Chet tilini o`rganish jarayonida musiqa tinglashda taqlid qilish, qo`shtiq matnini qaytarish (shadowing) eng samarali usul sifatida tavsiya etiladi. Bunda, eng dastlab, qo`shtiq til o`rganayotgan insonning darajasiga qarab tanlanishi lozim. Jarayonni endi boshlayotganlar, kuylashga oson, so`zlari yengil qo`shtiplarni ko`proq tinglashi maqsadga muvofiq. Chunki, odatiy qo`shtiplarning ko`p qismi rep tarzda, ya`ni o`ta tez kuylanadi. Bunday qo`shtiplarni tinglash ham zarar emas, lekin boshlang`ich darajadagi o`rganuvchilar uchun samarasi past. Negaki, tez kuylangan qo`shtiplarni tinglash, faqatgina, qulqoni shu tilga moslashtirishda foyda beradi. Eshitilgan matnni ma'lum darajada tushunadigan darajaga yetgandan keyin har qanday qoshiqlarni eshitish mumkin. Bunda, avval, musiqani 5-6 marta eshitib, tushunishga harakat qilish lozim. Lekin qo`shtiqni (aslida, har qanday audio turini ham) eshitish jarayonida so`zma-so`z tarjima qilishga harakat qilmaslik kerak. Sababi, bu holatda audioning qolgan qismini eshitishga ulgurmay qolish va ko`p yerlarini o`tkazib yuborish ehtimolligi katta. Ikkinchidan, til o`rganuvchi o`zi o`rganayotgan chet tilida musiqa tinglayotganda, musiqa matniga tushungan holda ham qattiq hayajonga berilish, yoki tushunmay qolgan yeriga yopishib qolmaslik zarur. Chunki, chuqurlashib ketish ham hayolni chalg`itadi. Aslida, musiqa so`zlarini eshitolmay qolish qo`rqinchli narsa emas, lekin bu musiqa tinglash orqali rivojlantirish ko`zda tutilayotgan narsaga – diqqatni bir yerga tezda yig`a olish qobiliyatini shakllantirishga to`sqinlik qiladi. Ikkinci bosqich, ya`ni qo`shtiqni 5-6 marta tinglagandan so`ng, qo`shtiqni bir vaqtda qulq bilan eshitib, ko`z bilan qo`shtiq matnnini o`qib turiladi. To`liq o`qib chiqqandan keyin, qo`shtiq bilan birga, lekin past ohangda kuylash maqsadga muvofiq. Chunki, aynan shu qadam metodning asosiy qismi hisoblanadi. Bunda:

1. Til o`rganuvchi o`z talaffuzini shu tilni ona tili sifatida so`zlovchilar (native speaker) talaffuzi bilan solishtirishi va so`zlarning to`g`ri talaffuzini o`zlashtirishi;
2. Tez o`qish va o`qilgan ma'lumotni miyaga tez skaynerlash qobiliyatini o`stirishiga erishish kutiladi.

Uchinchi qadamda, til o`rganuvchi va musiqa tinglovchi uchun maroqli bo`lgan mashg`ulotni bajarishi, ya`ni, qo`shtiq matnnini baland ovozda kuylashi mumkin. Bu tinglovchiga yuqori kayfiyat bag`ishlashidan tashqari:



1. Nutqdagi nuqsonlar(hayajon, tez-tez takrorlanadigan tanaffuz (pauza) va boshqalar)ni yo'qotishi;

2. Gapirayotganda o'ziga bo'lgan ishonchining ortishini ta'minlaydi.

Bu metoddan qayd etilgan natijalarga erishish uchun, eng asosiysi, muntazamlikka rioya etish talab qilinadi.

### NATIJALAR

Yuqorida taqdim etilgan metodni bir qo'shiq ustida amalga oshirish uchun, o'rtacha, 35-40 daqiqa ajratiladi. Inson kuniga 172 daqiqani musiqa tinglashga sarflashini hisobga olsak, kuniga 4-5 qo'shiq matnini o'zlashtirish mumkin. Lekin, kuniga 3 tadan ko'p qo'shiq matni bilan ishslash tavsiya etilmaydi. Chunki, yuqoridagi ko'rsatkichga qattiq suyanish noto'g'ri, ya'ni, kunning ko'p bo'sh vaqtini faqat bu mashg'ulotga sarflash til o'rganishda samarasi yuqori bo'lgan yana boshqa metodlarga oz vaqt qoldirishi mumkin.

### MUHOKAMA

Chet tilini o'rghanuvchi uchun mazkur tilda qo'shiq tinglash va taqlid qilishning yuqorida keltirib o'tilganlaridan boshqa yana bir muhim foydali jihat - bu lug'at boyligini oshirishidir. Bir qo'shiq matni, taxminan, 200-300 so'zdan iborat bo'lsa, til o'rghanuvchi o'z darajasiga qarab ma'lum miqdorda yangi so'zlarga duch keladi. Albatta, qo'shiq matni so'zma-so'z birma-bir tarjima qilinmaydi, ammo baribir, 1 qo'shiq matnidan, kamida, 10 ta yangi so'z o'rghanib olish mumkin. Demak, inson bir kunda 3 ta qo'shiq matnini o'rgansa, kuniga o'rtacha 30 ta yangi so'z o'rghanadi. Bu til boyligini oshirishda tavsiya qilinadigan boshqa metodlar(jumladan, lug'at yodlash)ga nisbatan ancha samaralidir. Talab qilinadigan narsa esa - muntazamlik.

### XULOSA

Musiqa tinglash inson psixologiyasi va shaxsiy rivojlanish uchun xizmat qilishi isbotlangan. Bu dunyo bo'ylab insonlarning sevimli mashg'ulotlaridan biriga aylanganki, insonlar kunining sezilarli qismini mazkur odatga sarflaydilar. Bu mashg'ulot yuqorida taqdim etilgan qadamlar orqali ma'lum bir chet tilini o'rghanuvchilar uchun yuqori samara keltirishi mumkin.

### FOYDALANILGAN MANBAALAR:

1. Shahram Heshmat, PhD. Psychologytoday 2023.
2. IFPI. All rights reserved. Representing the recording industry worldwide[2022]
3. Scientific journal impact factor (SJIF) 2021. Improving english language listening skil
4. Science time. Teaching strategie and activities to enhance vocabulary with the help of song



5. An innovative approach to memorizing words via modern songs(Orynbayeva A.K., Nakipbekova G.B., Beisenbekova A., Jumabayeva A.)
6. Евразийский Союз Ученых (ЕСУ). 2018. Педагогические науки. Using songs in teaching english as a foreign language